

MAXSUS MAKTAB INTERNATI O'QUVCHILARIGA TARIX FANINI O'QITISHDA NOANANAVIY USLUBLARDAN FOYDALANISH

*Surxondaryo viloyati Sho'rchi tumani
68-sonli aqli zaif bolalar uchun maxsus
maktab internatining tarix fani o'qituvchisi
Jabborova Xadicha Sadikovna*

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarix fanini o'qitishda noananaviy uslublardan foydalanish hamda mahsus maktab internati o'quvchilariga ushbu uslublarlarni moslashtirishdan iborat.

Kalit so'zlar: A.I.Srajev, noananaviy, metodist, dars, mashq, tarix, insert, ijtimoiy-siyosiy, o'qitish.

Bugungi kunda yurtimizda har sohada turli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan ta'lismida ham keskin o'zgarishlar ro'y bermoqda. Bugungi kun o'quvchisi ham ilmga chanqoq, yangilik va izlanishlarga o'ch bo'lishadi. Bu esa o'qituvchilar o'z ustida tinimsiz izlashni, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan o'rinli foydalanishni, darsni qiziqarli tashkil etish bilan bir qatorda AKT dan foydalana olishni talab etmoqda.

O'qitish metodi deganda ta'lism jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning ma'lum maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyat usullari tushuniladi. Boshqacha qilib aytganda, o'qitish metodlari har ikkala faoliyatning, ya'ni o'qituvchi tomonidan o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, ahloqiy jihatdan tarbiyalash, ularda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish hamda o'quvchilar tomonidan o'sha nazarda tutilgan ilmiy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish faoliyatida ko'llaniladigan usullarni o'z ichiga oladi. O'rta ta'lism va o'rta maxsus ta'lism tizimini isloh qilishning asosiy yo'nalishlarida ta'lism mazmunini takomillashtirish, uning tarbiyaviy yo'nalishini kuchaytirish bilan birga, o'qitish metodlarini ham aktivlashtirish asosiy vazifa qilib qo'yildi. Endilikda, ta'lism mazmuni insoniyat to'plagan tayyor bilimlar, ko'nikma va malakalarni puxta egallash bilan birga, o'quvchilarning mustaqil fikr yuritish, ijodiy ishlash qobiliyatlarining o'sishini ta'minlay oladigan ijodiy faoliyatni ham o'zida birlashtirmog'i lozim. Ta'limganing rivojlanish printsiplariga ko'ra, o'quvchilarni mustaqil fikrlash va ijodiy ishlay bilishga o'rgatish va ularda zarur ko'nikma, malakalarni yuzaga keltirishda ta'lism mazmuni bilan birga o'qitish metodlari ham muhim rol o'ynaydi [2].

O'rta ta'lism va o'rta maxsus ta'lism tizimida tarix o'qitish tajribasi shuni isbotladiki, yuqoridaqgi mantiqiy operatsiyalar o'qitish va o'rganishning barcha bosqichlarida turli xarakterdagи xilma-xil didaktik va metodik vazifalarni hal qilishda ishtirok etsada, mustaqil o'qitish metodlari bo'lib xizmat qila olmaydi. Taniqli

metodist A.I.Strajev aytganidek: «Tarix o'qitish metodi tarixiy material bo'yicha qilinadigan ana shu mantiqiy operatsiyalardan tashkil topadi». O'qitish metodlarini ba'zan o'quvchilarning bilish faoliyati, faollik darajasiga qarab klassifikatsiyalash tavsiya qilinadi. Bu tarzda ajratish o'qitish metodlaridan ko'ra, ko'proq o'qitishning umumiy xarakteriga taalluqlidir. 60- yillarda tarix o'qitish metodlari va ularni klassifikatsiyalash turlicha hal qilindi. Metodist A.I.Strajev «Tarix o'qitishning tashkil etilishi, metodlari va vositalari tarix fanining ma'lum ta'lim-tarbiya vazifalarini amalga oshirishga xizmat qiladi» deydi. Biroq, u ham o'qitishning asosiy metodlarini tarixiy jarayonning o'zini o'rghanish metodidan iborat qilib qo'yib, masalada noaniqlikka yo'l qo'yadi. A.I.Strajev quyidagi o'qitish metodlarini tavsiya qiladi: 1) tarixiy faktlarni o'rghanish metodlari; 2) xronologiyani o'rghanish metodlari; 3) mahalliy tarixiy voqealarni o'rghanish metodlari; 4) asosiy tarixiy tushunchalarni shakllantirish metodlari; 5) sabab-natija aloqalarni o'rghanish metodlari; 6) tarixiy jarayonning qonuniyatlarini ochib berish metodlari. Ma'lumki, tarix o'qitish - o'qitish va o'rghanishni tashkil etish jarayonidan iborat [1].

Maktablarda o'qitilayotgan ijtimoiy, shu jumladan tarix fani o'zida oliyjanob fazilatlarni mujassamlashtirilgan insonni tarbiyalashda benihoya ahamiyat kasb etadi. Maktabda o'quvchi kishilik jamiyati bosib o'tgan yo'lni, ularning chet el bosqinchilariga qarshi, o'z ozodligi va baxt-saodati, porloq kelajagi uchun olib borgan kurashlari haqidagi asosiy ma'lumotlarni tarix darslaridan bilib oladi. Shu bilan birga tarix darslari o'quvchining hozirgi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni to'g'ri anglashga yordamlashadi. Maxsus mакtab internati o'quvchilariga tarix fanini o'tishda tavsiya etilgan ayrim metodlardan quydagilarni keltirish mumkin.

Ha-yo'q mashqi

Mashq davomida o'qituvchi bir nima (raqam, predmet, adabiy yoki tarixiy qahramonni.) ni o'ylab qo'yadi. O'quvchilar esa unga savol berib, u nimani o'ylab qo'yanligini topishga harakat qiladilar. O'qituvchi ularning savollariga faqat "Ha", "Yo'q", "Ham ha, ham yo'q" so'zлari bilan javob beradi. Savol noto'gri berilgan yoki o'qituvchi didaktika maqsadlaridan kelib chiqib, savolga javob berishni xohlamaydigan vaziyatlar yuzaga kelishi mumkin. Shunda u oldindan belgilangan ishora bilan javob berishdan voz kechadi. Mashq yakunlanganidan so'ng albatta qanday savollar kuchli, qandaylari kuchsiz va nima uchunligi yuzasidan qisqa muhokama o'tkazish shart. Mashqning maqsadi – bolalarni savollarni tartibsiz berishga urintirmasmasdan, ularni izlash strategiyasini ishlab chiqishga o'rgatishdan iborat [3].



Maxsus maktab internati o'quvchilariga tarix fani dars jarayonlari

"Fikrni davom ettir" metodi. Bunda o'qituvchi biror mavzu bo'yicha kalit so'zlarni boshlanishini yozib qo'yadi, o'quvchi esa kalit so'zga mos ta'rifni yozishi lozim bo'ladi. Masalan 6-sinfda "Qadimgi dunyo tarixini davrlashtirish" mavzusini o'rgatishda qo'llash mumkin.

1. Poleolit-bu
2. Mezolit-bu
3. Neolit-bu
4. Eniolit-bu
5. Bronza-bu
6. Temir-bu...

Bu usulni doskada bajartirish yoki kartochkalarga yozib tarqatma holida ham qo'llash mumkin.

Venn diagrammasi usulida o'quvchilarda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiyligi mohiyatini o'zlashtirish (sintezlash) ko'nikmalarini hosil qilishga yo'naltiriladi. Strategiya kichik guruhlarni shakllantirish asosida sxema bo'yicha amalga oshiriladi. Yozuv taxtasi o'zaro teng 3 bo'lakka ajratiladi va har bir bo'lakka sxema chiziladi. Avval ikkala mavzu haqida ma'lumot yoziladi. So'ng ularning o'xshash tomonlari yoziladi va ikkita mavzu haqaidagi ma'lumotlar mustahkamlanadi. Bu usul ko'nikma hosil qilishda, tushuncha va axborotlarni umumlashtirish hamda ixchamlashtirish uchun tez va kuchli vosita bo'lib xizmat qiladi [4].

"Insert"jadvali. Bu jadval ham bugungi kunda keng qo'llanilmoqda. Bunda o'qituvchi o'tilgan mavzu yuzasidan ma'lumotlarni jadval ko'rinishida tarqatma holida tayyorlaydi. Ma'lumotlar orasida to'g'ri ma'lumotlar bilan bir qatorda noto'g'ri ma'lumotlar, shuningdek bu mavzuga mos kelmaydigan, hali o'tilmagan ma'lumotlar ham uchraydi. O'quvchi ma'lumotlarni o'qib jadvalga joylashtirishi lozim. Qadimgi Italiya Rim respublikasi O'xshash va farqli tomonlari "Tushunchalar tahlili" metodi. Bunda o'qituvchi o'tilgan "Rim respublikasi" mavzuni mustahkamlash va

takrorlashga ma'lumotlarni eslatib o'tadi. O'quvchilarga tushunchalar tushurilgan jadval tarqatiladi. Tushunchani izohlab, o'quvchilar uning tahlilini yozishadi.

Xulosa o'rnilida shuni aytish joizki o'quv-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarning to'g'ri joriy etilishin lozim. Bu esa o'quvchidan ko'proq mustaqillikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azizzxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat.-T.: TDPU. 2003.
2. Oxunjonova G.D. Tarix fanini o'qitishda foydalaniladigan metodlar. "Ta'lim fidoiyatlari" ISSN: 2130-2180 85-90
3. Djo'rayeva L.G'. Tarix fanini o'qitishda zamonaviy interfaol metodlardan foydalanish. "Tafakkur manzili" 2022. 364-368 b.
4. Shokirova G.S. Tarix darsini o'qitishda interfaol usullardan foydalanish "Ijodkor o'qituvchi jurnali" 2022 yil / 22 – son 47-48 b